

NAMANGAN VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik




2022- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik

2017-2022 yillarda faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), *ming birlikda*





Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **32,3** mingtani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan **3,4** mingtaga ko'paygan yoki **11,6 %** ga oshgan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **10,8** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

2022- yilning yanvar - dekabrda **5,5** mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **14,3 %** ga kam demakdir.

2023- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni va ulushi



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 2023- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



2023- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan soni jami **32 305** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **5 542** tani tashkil etdi


2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Namangan shahrida **10 657** tani yoki jamiga nisbatan **33,0 %** ni tashkil etdi.

1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda



2022- yilda faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatan **13,2** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2021- yilga nisbatan **0,9** birlikka oshgan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **har 1000 aholiga** nisbati eng yuqori ko'rsatkich Namangan shahrida **15,7** birlik, Mingbuloq tumanida **15,2** birlik, Namangan tumanida **14,4** birlik, Chortoq tumanida **14,2** birlikka yetdi.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)*

| | |
|---------------|------|
| Namangan sh. | 15,7 |
| Mingbuloq | 15,2 |
| Namangan | 14,4 |
| Chortoq | 14,2 |
| Chust | 13,9 |
| Uchqo'rg'on | 13,9 |
| Norin | 11,8 |
| Pop | 11,4 |
| To'raqo'rg'on | 11,0 |
| Uychi | 10,9 |
| Kosonsoy | 10,9 |
| Yangiqo'rg'on | 10,9 |

* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*

Eng yuqori ko'rsatkich

Namangan shahar
– 15,7 birlik.

o'rtacha ko'rsatkich

Norin tumani
– 11,8 birlik.

Eng past ko'rsatkich

Yangiqo'rg'on tumani
– 10,9 birlik.

Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **har 1000** aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Namangan shahrida **15,7** birlik, Mingbuloq tumanida **15,2** birlik, Namangan tumanida **14,4** birlik, Chortoq tumanida **14,2** birlik, Uchqo'rg'on va Chust tumanlarida **13,9** birlik, Norin tumanida **11,8** birlik kuzatildi.

2022- yilda har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, *birlikda*

Namangan shahri
15,7

Mingbuloq tumani
15,2

Namangan tumani
14,4

Chortoq tumani
14,2

Chust tumani
13,9

Uchqo'rg'on tumani
13,9

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

| 2021- y. | | 2022- y. |
|----------|---------------|----------|
| 378 | Mingbuloq | 236 |
| 385 | Kosonsoy | 267 |
| 444 | Namangan | 344 |
| 389 | Norin | 335 |
| 405 | Pop | 324 |
| 481 | To'raqo'rg'on | 358 |
| 455 | Uychi | 353 |
| 449 | Uchqo'rg'on | 479 |
| 430 | Chortoq | 397 |
| 536 | Chust | 446 |
| 368 | Yangiqo'rg'on | 314 |
| 1749 | Namangan sh. | 1689 |


2022- yilda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da




2022- yilda hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Namangan shahri – **30,5 %**, Uchqo'rg'on tumani – **8,6 %**, Chust tumani – **8,0 %**, Chortoq tumani – **7,2 %**, To'raqo'rg'on tumani – **6,5 %**, Uychi tumani – **6,4 %**, Namangan tumani – **6,2 %** hissalariga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2021-2022- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, *birlikda*



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, *birlikda*




— 2021-y. ■ 2022-y.2

2022- yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida **2 109** ta, sanoatda **1 492** ta hamda Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **679** ta yangidan tashkil etilgan.


Viloyatning shahar va tumanlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar Namangan shahrida **1689** ta, Uchqo'rg'on tumanida **479** ta, Chust tumanida **446** ta, Chortoq tumanida **397** ta, To'raqo'rg'on tumanida **358** ta, Uychi tumanida **353** ta, Namangan tumanida **344** ta yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2017-2022 yillarda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2018-2022 yillar davomida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik



So'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2018-2022 yillar davomida jami **26 369** ta kichik korxonalar va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida - **10 029** (yoki **38,0 %**) ta, sanoat sohasida - **7 089** ta (yoki **26,9 %**), xizmatlar sohasida - **4 589** ta (yoki **17,4 %**), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - **2 951** ta (yoki **11,2 %**) va qurilish sohasida - **1 711** ta (yoki **6,5 %**) tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarida eng ko‘p yangidan tashkil etilayotgan sohalar

Kichik korxonalar va mikrofirmalar so‘ngi 3 yilda eng ko‘p yangidan tashkil etilayotgan soha va yo‘nalishlar


| Tarmoq nomi | Korxonalar soni, birlik | Tarmoq-dan ulushi, %da |
|---|-------------------------|------------------------|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | | |
| Aralash qishloq xo‘jaligi | 182 | 8,0 |
| Parrandachilik | 211 | 9,3 |
| Yirik shoxli qoramollarning sut beradigan zotlarini ko‘paytirish | 207 | 9,1 |
| Sabzavotlar etishtirish | 73 | 3,2 |
| Qorako‘l zotlilardan tashqari qo‘ylarni ko‘paytirish | 81 | 3,6 |
| Sanoat | | |
| Non, xamirdan yangi tayyorlangan qandolat mahsulotlari, tort va pirojnoye ishlab chiqarish | 404 | 8,5 |
| Boshqa to‘qilgan va trikotaj mahsulotlar ishlab chiqarish | 443 | 9,3 |
| Boshqa ustki kiyimlar ishlab chiqarish | 512 | 10,8 |
| Boshqa mebellar ishlab chiqarish | 244 | 5,1 |
| Metall eshik va derazalar ishlab chiqarish | 149 | 3,1 |
| Qurilish | | |
| Turar joy binolarini qurish | 271 | 26,2 |
| Yashash uchun mo‘ljallanmagan binolar qurish | 198 | 19,1 |
| Boshqa toifalarga kiritilmagan boshqa ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari | 293 | 28,3 |
| Qurilish loyihalarini ishlab chiqish | 64 | 6,2 |
| Boshqa toifalarga kiritilmagan qurilish-montaj ishlari | 48 | 4,6 |
| Savdo | | |
| Ixtisoslashmagan do‘konlarda boshqa tovarlar chakana savdosi | 2331 | 32,8 |
| Ixtisoslashmagan ulgurji savdo | 1259 | 17,7 |
| Ixtisoslashmagan do‘konlarda asosan oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan ichimliklar, va tamaki mahsulotlari chakana savdosi | 263 | 3,7 |
| Ixtisoslashgan do‘konlarda boshqa oziq-ovqat mahsulotlari chakana savdosi | 523 | 7,4 |
| Ixtisoslashgan do‘konlarda boshqa yangi tovarlar chakana savdosi | 692 | 9,7 |
| Xizmatlar sohasi | | |
| Ovqatlanishni tashkil qilishning boshqa turlari | 485 | 15,8 |
| Restoranlar va oziq-ovqat mahsulotlari etkazish bo‘yicha xizmatlar | 219 | 7,1 |
| Boshqa toifalarga kiritilmagan shaxsiy xizmatlar | 156 | 5,1 |
| Avtomobil transportida yuk tashish | 262 | 8,5 |
| Ta’lim sohasidagi yordamchi faoliyat | 145 | 4,7 |

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida tahlililar shuni ko'rsatmoqdaki, so'ngi besh yilda barcha sohada yangi turdagi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etilmoqda. Jumladan, So'nggi 3 yilda eng ko'p savdo sohasining Ixtisoslashgan do'konlarda boshqa tovarlar chakana savdosi yo'nalishida **2 331 ta** yangi kichik korxonalar va mikrofirma tashkil etilgan bo'lib, bu esa savdo sohasida oxirgi 3 yilda tashkil etilgan korxonalarning **32,8 %**ini tashkil etmoqda. Bundan tashqari so'ngi yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar hamda kichik tadbirkorlik subyektlariga berilayotgan imkoniyat va preferensiyalar natijasida, xizmatlar sohasining ovqatlanishni tashkil etish, avtomobil transporti xizmatlari va ta'lim yo'nalishlarida ham ko'plab kichik korxonalar va mikrofirmalar ochilayotganligini ko'rishimiz mumkin.


Shuningdek, sanoat sohasida so'ngi yillarda asosan qandolatchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, trikotaj mahsulotlarni ishlab chiqarish, mebel ishlab chiqarish va deraza hamda eshik romlarini ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan bo'lsa, qurilish sohasida esa ko'proq yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar turar joylarni qurilishi, qurilish loyihalash ishlari hamda boshqa toifalarga kiritilmagan qurilish montaj yo'nalishlarida ko'proq tashkil etilmoqda.

Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi, % da



2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlar, % da




2022- yilda YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **72,8 %**ni tashkil qilib, 2021- yilga nisbatan **1,0** punktga kamaygan. Kamayishining asosiy sababi, yirik tadbirkorlik subyektlarida qo'shilgan qiymat hajmining oshishi bilan ifodalanadi.


2022- yilda kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari yo'lovchi tashishda **97,4 %**ni, qishloq xo'jaligida **94,6 %**ni, yo'lovchi aylanmasida **94,1 %**ni, savdoda **92,3 %**ni, yuk tashishda **91,6 %**ni, qurilishda **89,1 %**ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdodagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2022- yilda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm

| | |
|---------------|--------|
| Namangan sh. | 3740,1 |
| Uychi | 779,1 |
| Namangan | 729,7 |
| Chust | 618,3 |
| Chortoq | 375,4 |
| Mingbuloq | 373,2 |
| Kosonsoy | 365,0 |
| To'raqo'rg'on | 352,1 |
| Pop | 323,5 |
| Yangiqo'rg'on | 301,1 |
| Uchqo'rg'on | 251,2 |
| Norin | 123,2 |

2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **8 331,8** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Namangan shahri (**3 740,1** mlrd. so'm), Uychi (**779,1** mlrd. so'm), Namangan (**729,7** mlrd. so'm), Chust (**618,3** mlrd. so'm) va Chortoq (**375,4** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Norin tumanida (**123,2** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlar hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, %da


| | |
|--------------|------|
| Namangan sh. | 44,9 |
| Uychi | 9,3 |
| Namangan | 8,8 |
| Chust | 7,4 |
| Chortoq | 4,5 |

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2017-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi dinamikasi, % da



2022- yilda hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




2022- yilda sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **24,2 %** ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Yangiqo'rg'on hamda Chortoq tumanlari (**100,0 %**), Uychi tumani (**74,5 %**), Namangan tumani (**68,5 %**), Pop tumani (**61,8 %**), Namangan shahri (**52,5 %**), va Norin (**50,2 %**) tumanlari tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2022- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi




2017-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi dinamikasi, % da



2022- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **6 027,3** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **89,1 %** ini tashkil etdi. o'sish sur'ati 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **104,7 %** ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Namangan shahri (**1 509,3** mlrd. so'm), Uychi (**711,3** mlrd. so'm), Kosonsoy (**523,8** mlrd. so'm), Chortoq (**507,3** mlrd. so'm), Namangan (**434,0** mlrd. so'm), Chust (**375,9** mlrd. so'm) hamda Uchqo'rg'on (**369,0** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2017-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2017-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda




2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **9 430,1** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **65,7 %** ini tashkil etdi. o'sish sur'ati 2021- yilga nisbatan **100,4 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Namangan shahri (**3 111,5** mlrd. so'm), Namangan (**1 047,9** mlrd. so'm), To'raqo'rg'on (**923,7** mlrd. so'm), Pop (**869,1** mlrd. so'm), Chust (**687,7** mlrd. so'm), Yangiqo'rg'on (**629,8** mlrd. so'm) hamda Chortoq (**465,7** mlrd. so'm) viloyatlarida qayd etildi.

2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi



2017-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da




2017- y. 2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y.

■ hajmi, mlrd. so'm ■ ulushi, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi faoliyati


2017-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda



2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **26 208,5** mlrd. so'mni yoki jami qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmining **94,6** % ini tashkil etdi. o'sish sur'ati 2021- yilga nisbatan **104,8** % ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi Yangiqo'rg'on tumani (**3 865,0** mlrd. so'm), Namangan shahri (**2 476,5** mlrd. so'm), To'raqo'rg'on (**2 386,2** mlrd. so'm), Pop (**2 312,1** mlrd. so'm), Uchqo'rg'on (**2 297,0** mlrd. so'm) hamda Namangan (**2 254,1** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2017-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi ulushi dinamikasi, % da




2017-y. 2018-y. 2019-y. 2020-y. 2021-y. 2022-y.

2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2017-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda




2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **18 174,7** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **92,3 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2021- yilga nisbatan **112,8 %** ni tashkil qildi.

2017- y. 2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y.

2022- yilda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi, mlrd. so'm

| | |
|---------------|--------|
| Namangan sh. | 7161,5 |
| Pop | 1462,3 |
| Chust | 1218,9 |
| Norin | 1164,9 |
| To'raqo'rg'on | 1161,3 |
| Kosonsoy | 1109,2 |
| Yangiqo'rg'on | 1088,1 |
| Uychi | 1006,8 |
| Uchqo'rg'on | 815,7 |
| Chortoq | 805,6 |
| Namangan | 699,6 |
| Mingbuloq | 480,7 |

2017-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi, % da




2017- y. 2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Namangan shahri (**7 161,5** mlrd. so'm), Pop (**1 462,3** mlrd. so'm), Chust (**1 218,9** mlrd. so'm), Norin (**1 164,9** mlrd. so'm), To'raqo'rg'on (**1 161,3** mlrd. so'm) va Kosonsoy (**1 109,2** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2017-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2022- yilning yanvar-dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatishi hajmi, mlrd. so'mda




2022- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 9713,5 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 66,0 % ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 113,5 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Namangan shahri (2620,9 mlrd. so'm), Chust (795,8 mlrd. so'm), Uychi (730,9 mlrd. so'm), To'raqo'rg'on 714,4 mlrd. so'm), Pop (692,9 mlrd. so'm), Kosonsoy (673,4 mlrd. so'm) va Namangan (640,2 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.





Ulushi, %da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.

Ulushi, %da




2017-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2022- yilda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **256,4** million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **44,1 %** ini tashkil etdi.

2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi




■ hajmi, mln. AQSH dol ■ ulushi, %



2022- yilda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Chortoq va Yangiqo'rg'on tumanlarida – **100,0 %**, Norin tumanida – **94,3 %**, Mingbuloq tumaniida – **75,3 %**, Pop tumanida – **72,9 %**, Namangan shahrida – **58,0 %**, Uyshi tumanida – **47,0 %** va Namangan tumanida – **42,2 %**, eng past ko'rsatkich Uchqo'rg'on tumanida – **10,9 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati


2017-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, %da




2022- yilda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **501,5** million AQSH dollarini yoki jami importning **71,9** % ini tashkil etdi.

2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2022- yilda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Chortoq hamda Yangiqo'rg'on tumanlarida – **100,0** %, Norin tumanida – **99,3** %, Pop tumanida – **95,3** %, Uychi tumanida – **91,5** %, Kosonsoy tumanida – **87,5** %, Namangan tumanida – **81,7** % ni tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati




Yuk
tashishda

2022- yilda avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **91,6 %** ni tashkil etdi. 2021- yilga nisbatan o‘shish sur‘ati **104,3 %** ni tashkil qildi.




Yuk
aylanmasida

2022- yilda, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **89,0 %** ni tashkil etgan bo‘lib, 2021- yilga nisbatan o‘shish sur‘ati **108,2 %** ni tashkil qildi.



Yo‘lovchi
tashishda

2022- yilda, avtomobil transportida yo‘lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,4 %** ni tashkil etib, 2021- yilga nisbatan o‘shish sur‘ati **102,7 %** ni tashkil qildi.




Yo‘lovchi
aylanmasida

2022- yilda, avtomobil transporti yo‘lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **94,1 %** ni tashkil etib, 2021- yilga nisbatan o‘shish sur‘ati **101,7 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxonaga va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yil IV chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonaga va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2022- yil VI chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonaga va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada **1 090** ta kichik korxonaga va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **353(32,4 %)** tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **660(60,6 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **77(7,1%)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonaga va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **37,0 % (403 ta)**, xizmatlar sohasida – **27,8 % (303 ta)**, sanoatda – **20,6 % (225 ta)**, qurilishda – **7,6 % (83 ta)**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **7,0 % (76 ta)**ni tashkil etdi.

2022- yil III chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonaga va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari


2022- yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Namangan shahri (395 ta), Pop (88 ta), To'raqo'rg'on (77 ta), Namangan (71 ta), Chust (70 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2022- yilning IV choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **35,3 %** ni, savdoda – **32,7 %**ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **30,3 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilishda – **65,1 %** ni, sanoatda – **64,0 %** ni qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **60,5 %** ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **9,2 %** ni, savdoda – **8,7 %** ni, sanoatda – **6,7 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2022- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **40,9 %** ni, qurilishda – **38,6 %** ni, savdoda – **37,0 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **61,8 %** ni, sanoatda – **61,3 %** ni, qurilishda va savdoda – **56,6 %** ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **6,6 %** ni, savdoda – **6,4 %** ni, sanoatda – **4,9 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


| | o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar | | |
|--|---|--------------|--------------------------|
| | Ko'payish (yaxshilanish*) | o'zgarishsiz | Kamayish (yomonlashish*) |
| Korxonaning umumiy aylanmasi | 39,6 | 53,0 | 7,4 |
| Band bo'lganlar soni | 17,6 | 77,4 | 5,0 |
| Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx | 36,7 | 59,3 | 4,0 |
| Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarzi mablag'lari | 29,8 | 63,8 | 6,4 |
| Raqobat muhiti | 41,0 | 55,6 | 3,4 |

| | Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli | | |
|--|-------------------------------------|--------------|--------------------------|
| | Ko'payish (yaxshilanish*) | o'zgarishsiz | kamayish (yomonlashish*) |
| Korxonaning umumiy aylanmasi | 41,2 | 54,9 | 3,9 |
| Band bo'lganlar soni | 18,5 | 78,3 | 3,2 |
| Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx | 32,4 | 64,1 | 3,5 |
| Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarzi mablag'lari | 29,4 | 64,4 | 6,2 |
| Raqobat muhiti | 39,5 | 56,7 | 3,8 |


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2022- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli